

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
SANTEXNIKA ISHLARI TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN SANTEXNIKA ISHLARI TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Santexnika ishlari texnologiyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Santexnika ishlari texnologiyasi

1. Issiqlik ta‘minoti tizimlari haqida tushuncha;
2. Isitish tizimi va uning ementlari;
3. Issiq suv ta‘rmoqlari va uning tuzilish sxemalari;
4. Binolarning gaz ta‘minoti tizimlari;
5. Ichki suv ta‘minoti tizimlari;
6. Ichki kanalizatsiya tizimlari;
7. Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari;
8. Santexnika qurilmalari va ularning tuzilishi. Santexnika qurilmalarini ekspluatatsiya qilish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Issiqlik ta'minoti tizimlari haqida tushuncha	Issiqlik ta'minoti tizimlari bu bino va inshootlarni issiqlik energiyasiga bo'lgan talabini qondirishga xizmat qiladigan tizim bo'lib, unda issiqlik energiya manbalari, ularning tuzilishi, qurilma va jihozlar haqida bilim va tushunchalar beradi.	3 ta
2	Isitish tizimi va uning elementlari	Isitish tizimi issiqlik ta'minoti tizimlarining bir bo'lagi bo'lib, bir quvurli, ikki quvurli va ko'p quvurli isitish tizimlariga bo'linadi. Uning elementlariga isitish qozoni, issiqlik tashuvchi quvurlar, isitish asboblari, harorat rostlagichlar, issiqlik tugunlari va sarf o'lchagichlar tashkil etadi.	6 ta
3	Issiq suv tarmoqlari va uning tuzilish sxemalari	Issiq suv tarmoqlari issiqlik ta'minoti tizimlarining bir bo'lagi bo'lib, tuzilish jihatidan yuqoridan, pastda tarmoqlanishga ajratiladi. Ta'minlanadigan manbaga qarab markazlashgan va mahalliy turlarga bo'linadi.	10 ta
4	Binolarning gaz ta'minoti tizimlari	Binolarning gaz ta'minoti tizimlari binolardagi gaz bilan ishlaydigan jihozlarga xizmat qiladi. Ularning tuzilishi, ularga xizmat ko'rsatishda qonu qoidalar haqida tushuncha beradi.	1 ta
5	Ichki suv ta'minoti tizimlari	Ichki suv ta'minoti tizimlari binolarni sovuq suv bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Uning elementlari haqida tushuncha beradi. Ularni ekspluatsiya qilish qoidalarini o'rgatadi.	6 ta
6	Ichki kanalizatsiya tizimlari	Ichki kanalizatsiya tizimlari bino va inshootlardan chiqadigan oqova suvlarni oqizish qurilmalarni va jihozlari haqida tushuncha beradi. Ularni ekspluatsiya qilish bo'yicha tushunchalar beradi;	4 ta
7	Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari	Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari shamollatish qurilmalari va jihozlari haqida bilim beradi. Ulardan foydalanish qoidalarini o'rgatadi.	5 ta
8	Santexnika qurilmalari va ularning tuzilishi; Santexnika	Santexnika qurilmalari va ularning tuzilishini tushuntiradi. Santexnika qurilmalarini ekspluatatsiya qilishdagi qoidalari bilan tanishtiradi.	5 ta

qurilmalarini ekspluatatsiya qilish.		
--------------------------------------	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini

testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O‘.T.Zokirov, E.S.Buriyev, I.U.Ibragimov “Binolarning sanitar texnik qurilmalari kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2016
2. Yu.K.Rashidov “Binolarning enegiya tejakor muhandislik kommunikatsiyalari”. Darslik. Toshkent-2018.
3. T.Mamajanov, U.X.Tursunova “Issiqlik ta’minoti”. O‘quv qo‘llanma. 2004 yil.
4. Yu.K.Rashidov “Issiqlik, gaz ta’minoti va ventilyatsiya tizimlari” darslik. Toshkent-2009.
5. S.M.Boboyev, Shukurov, Ismanxodjayeva “Isitish”. Darslik. 2005 yil.
6. Saidova D.Z., Nurmanov S.R. “Ventilyatsiya”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2009.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*